



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO  
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari**



**2023-yil  
19-oktabr**



# METONIMIYA ASOSIDA HOSIL BO'LGAN FAOLIYAT-JARAYON OTLARI

## ACTIVITY-PROCESS NOUNS ON THE BASIS OF METONYMY

Lafasova Mavjuda Tulqin qizi\*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otlari haqida fikr yuritilgan. Metonimiya shaxs va narsalar o'rtasidagi makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida amalga oshadigan ma'no ko'chish hodisasi hisoblanadi. Metonimiya predmet, narsa, hodisalarining makon va zamondagi bog'lanishidan birining nomini, ikkinchisiga ko'chirish asosida yuzada keladigan ma'no ko'chish turiga metonimiya deyiladi. Bu usul bilan nom ko'chishda tashqi va ichki belgidagi o'xshashlik hisobga olinmaydi, balki ular orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi, shunga ko'ra metonimiya asosida faoliyat-jarayon otlari ham hosil bo'ladi.

**Kalit so'zi:** metonimiya, faoliyat-jarayon otlari, ma'no ko'chishi

**Abstract:** This article discusses action-process nouns formed on the basis of metonymy. Metonymy is a phenomenon of meaning transfer based on the relationship between people and things in space and time. Metonymy is a type of transfer of meaning that occurs on the basis of transferring the name of one of the objects, things, events in space and time to another, is called metonymy. When transferring names with this method, the similarity of the external and internal signs is not taken into account, but the existence of a constant connection between them is taken into account, accordingly, activity-process nouns are formed on the basis of metonymy

**Key word:** metonymy, action nouns, transfer of meaning.

Metonimiya shaxs va narsalar o'rtasidagi makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida amalga oshadigan ma'no ko'chish hodisasi hisoblanadi. **Metonimiya.** gr. "meta" qayta, anoma – "nom" demakdir predmet, narsa, hodisalarining makon va zamondagi bog'lanishidan birining nomini, ikkinchisiga ko'chirish asosida yuzada keladigan ma'no ko'chish turiga metonimiya deyiladi. Bu usul bilan nom ko'chishda tashqi va ichki belgidagi o'xshashlik hisobga olinmaydi, balki ular orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi, shunga ko'ra quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) o'rin munosabati (ko'za, piyola, samovar) masalan, to'ldirib quy qadahlarni yangrasin gulyor (qo'shiq) 2) joy, tashkilot so'zidagi doimiy aloqaga ko'ra (shahar, tashkilot)

*Ko'zimning oldidan o'tadir g'amgin,  
Navoiy tobutin ko'targan Hirot. (A.E.)*

- 3) muallif bilan asari orasidagi doimiy aloqa  
*Fuzuliyini oldim qo'limga  
Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi  
Va Navoiy tushib yo'limga  
Faryod bilan o'rnidan turdi. (H. O)*

- 4) boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa asosida ko'chadi.  
*O'n to'qqizga chiqasan bugun,  
Uzoqdaman. Yo'q menda toqat (H.O)*

Metonimiya orqali faoliyat-jarayon otlari ham hosil bo'lishi mumkin. Bunday so'zlar tilimizda ko'plab uchraydi.

"Kengash" so'zini tahlil qilamiz:

Kengash I. fe'l. Maslahatlashmoq. Uydagilar bilan kengashmoq. ...rayon suv xo'jalik bo'limi, qo'shni savxoz rahbarlari va yana qancha odamlarni topish, ular bilan kengashish, ba'zan esa talashib-tortishish kerak bo'ladi. Hamid G'ulom. Binafsha atri.

\*O'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti "Masofaviy ta'lim" kafedrasi

Kengash II. *ot.* Maslahatlashish yig'ini [совещание]. Kengashli, kengashchi. *Hafta oxiriga kengash chaqirmoq. Kecha Ilmiy kengash majlisidan keyinoq Oqqo 'rg'onga boribdi, qo'sh qator chigit ekan kolxozlarning g'o'zalarini ko'zdan kechiribdi.* Hamid Gulom. Binafsha atri [Rahmatullayev Sh.O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent:O'qituvchi,1984. – B.76].

Yuqoridagi so'zda maslahatlashish amalga oshadigan jarayon ham xuddi shu nom bilan atalgan va metonimiya asosida faoliyat-jarayon oti hosil bo'lgan.

Metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otlaridan yana biri “kurash” dir.

Kurash I fe'l. 1.Kurash tushmoq[бороться]. *Bugun og'ir vaznli polvonlar kurashadi.*

2.Kurash olib bormoq[вести борьбу]. *Paxtadan mo'l hosil olish uchun kurashaylik.* Hamid G'ulom. Binafsha atri.

Kurash II *ot.* Kuch sinashish sport musobaqasi. *Kurash tushmoq. Klassik kurash. Fransuzcha kurash. ... kurashda yelkasi yerga tegmagan polvon bo'lsa-yu, xotin olishga kuchi yetmasa!* Hamid Gulom. Binafsha atri [Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. –B.82]. Ushbu holatda metonimiya asosida faoliyat-jarayon oti hosil bo'lgan.

Metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otlaridan biri “to'y” leksemasidir. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'atida ushbu omonimlar qatoriga quyidagicha ta'rif berilgan:

To'y

to'y I. fe'l. Qoniqib ovqat yemoq, ovqat yeyish istagini(hissini) qondirmoq[насытиться]. *Qornim to'ydi. To'ygan qo'zining bolasiday. Yeb to'ymagan yalab to'ymas. Maqol. Suq to'ymas, o'g'ri boyimas. Maqol. Aziz binafshani to'yib hidladi-da, avaylab cho'ntagiga soldi va avtobusga chiqdi.* Hamid G'ulom. Binafsha atri.

to'y II. *ot.* 1.Nikohlash, sunnat qilish, beshik qilish kabi marosimlarga bag'ishlab, to'kin ziyofat bilan, o'yin-kulgi bilan o'tkaziladigan yig'in[пир, свадьба]. To'ychi, to'ychiq, to'yboshi, to'yxat, to'yparast, to'yxona. Nikoh to'yi. O'g'il to'yi. Hovli to'yi. *Ota-onasi ham, qiz uyatchan, itoatkor, tortinchoq bo'lgani uchun darhol to'y qilishga rozilik bera qoldilar.* SHarof Rashidov. Qudratli to'lqin.

2.Kuyov tomon kelinnikiga yuboradigan sarpo, shirinlik va oziq-ovqatlar. *Bugun peshinda to'y keladi. Mulla Abdishukur, ertaga o'jizamizga to'y keladi, marhamat qiling, durustmi?* Oybek. Qutlug' qon [Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1984. –B.75].

Yuqoridagi misolda to'yish harakati bilan bog'liq jarayon ham “to'y” nomi bilan atalishi metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otiga misol bo'la oladi.

Metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otlaridan yana biri “uloq” leksemasi hisoblanadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ushbu leksemaga quyidagicha ta'rif beriladi:

ULOQ I. 1 *ot* Ulanadigan narsa. *Uloq solmoq. Arqonning ulog'ini olib tashlamoq. ...yirtig'ingizga yamoq, uzug'ingizga uloq tegmay yurardingiz, – dedi Nafisa eriga. Shuhrat. Jannat qidirganlar.*

2 *sft.* Turli yo'l bilan ( bog'lash, tikish, yelimlash, kavsharlash, mixlash va sh.k bilan) o'zaro tutashtirib, mahkamlab, biriktirib qo'yilgan, ulangan bir necha bo'lakdan iborat, yaxlit emas. *Uloq arqon. Uloq dasturxon. Uloq sim. Uloq tunuka. Boy bobomning qizlari, Sochi uloqqa o'xshaydi. “Oq olma, qizil olma”.*

3 *ot* Narsaning bo'laklari o'zaro ulanganda hosil bo'lgan tuguni yoki choki, ulangan joyi. *Arqonning ulog'i. Pardaning ulog'i. Elektr simining ulog'i. Tunukaning ulog'i.*

ULOQ II 1 Echki bolasi. *Hozir yuzlab mayin junli qo'zi va uloqqa egamiz. S.Anorboyev. Oqsoy. Ko'z oldimga ko'm-ko'k o'tloqlar, o'tlab yurgan jajji uloqlar, barra qo'zichalar keladi. N.Fozilov. Qush qanoti bilan.*

2 Har bir otliq o'rta so'yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat milliy sport o'yini; ko'pkari. *Ot boqqaning – uloqqa, Qo'y boqqaning – qo'noqqa. Maqol. Uloqda otdan yiqilib boshi yorilgan, oyoq-qo'li singan chavandozlar inqillashib yotmoqda.*

M.Muhammadjonov. Turmush urinishlari. *Himmatjonning zvenosidagi yigitlarning ikkitasi front ko'rgan... qolganlari uloqlarda turli sovrin olgan yigitlar edilar.* M.Muhammedov. Qahramon izidan.

3 Shunday sport musobaqasida o'rtaga tikilgan – so'yib tashlangan echki yoki buzoq. [Qambar]. Uloq olish uchun chavandoz bo'lish kerak, ukam Obidjon! Oybek . Tanlangan asarlar. Ana, bir otliq boshsiz uloqni taqimiga bosib, to'yxonadan chiqdi. T.Murod. Yulduzlar mangu yonadi.

Uloq bermoq. 1) uloqda chopiladigan, o'rtadan olib, marraga yetkasib tashlanadigan echki, buzoq kabini bermoq. *Har kun ikki yuz qozon osh damlanar... ikki yuzlab uloq berilar, mamlakatdan to'yga keluvchi a'yonga har kun minglab to'n kiydirilar edi.* A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. 2) uloq o'yinini tashkil qilmoq, o'tkazmoq. *Uloq bergan kishi sovrin ham beradi-da.* M.Ismoil. Farg'ona tong otguncha. *Ruxsatsiz uloq bergan kishiga jarima solinur .* "Mushtum"

Uloq chopmoq . Uloq o'yinida qatnashmoq. *Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapiravesa, kishi hayron qoladi.* A.Qodiriy. Uloqda.

Uloq qilmoq. Biridan biri olib, olib qochib o'yin qilmoq, uloq kabi o'yin qilmoq. *Tag'in ehtiyot bo'l, qo'rboshilar o'g'irlab ketib, uloq qilmasin.* Oydin. Hikoyalar.

Uloqni olmoq. Uloqda, umuman, musobaqada g'lib chiqmoq, g'alaba qilmoq. *Bu safar musobaqada uloqni mehmonlar olishdi. Andijon, Surxondaryo uloqni olib, Xorazm, Qashqadaryo quvlashib borib...* A.Po'lat. Tasadduq [O'zbek tilining izohli lug'ati.3-jild. – B.279].

Barchamizga yaxshi ma'lumki, echki bolasi uloq deb ataladi. Odatda, ko'pkari o'yinida so'yilgan echki bolasi o'rtaga tashlanadi, musobaqa qatnashchilari uni boshqalarga bermasdan, ayirib olib chiqib, marragacha yetkazishi kerak bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan "ko'pkari" atamasi tobora iste'moldan chiqib, uning o'rnida "uloq" atamasi qo'llana boshladi. Atoqli yozuvchi Abdulla Qodiriyning butun boshli hikoyani "Uloqda" deb nomlashi ham fikrmizning isboti bo'la oladi. Ushbu hikoyada ko'pkari atamasini biror o'rinda uchratmaymiz, bu atama o'rnida "uloq" atamasi ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz:

*Har kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham so'z qotib qo'ydilar. Men uyalaman. So'z urinib, yana Mahkam akam ustida to'xtaldi:*

–*Shu choqqacha ko'p uloqni ko'rdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini ko'rmadim! – dedi bittasi.*

–*Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo'lib kelgan-da! – dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.*

–*Axir, o'n ikki yashar ukasini ko'rmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!*

*Bu so'zdan mening a'zoyi badanim jimirlashib ketdi va oz goldiki kulib yuborsam.*

–*Dadam Mahkamning bobosining uloq chopishini gapiraversa kishi hayron qoladi, – dedi yan bir mo'ylovi shopdek yigit, – yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'iz uloqni ajratib chiqar ekan-da!*

–*U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! – dedi Sobir tegirmonchining o'g'li.*

–*Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo'lsa, sen ham uloqning piri bo'lasan! – dedi yana biri [Qodiriy Abdulla.Kichik asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, –B.9].*

Yuqorida keltirilgan misolda "uloq" so'zi "ko'pkari" ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, quyida uloq so'zining echki bolasi ma'nosida ishlatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin:

*Bir kishining: "Ana uloq keldi!" deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo'lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: "Ulog'i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo'lmaydi!" – degan janjal boshlangan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o'ynatib kirishi hammaning tovushini o'chirib qo'ydi va sekin-sekin: "Salim chavandoz!", "Murod chavandoz!" degan shivirlashlar eshitilib qoldi.*

*Oradan talay vaqt o'tgandan keyin, bo'g'izlangan ulog'ini oldiga o'ngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakkaga qiya qo'yib, egarga qiyshiq*

o'tirib o'rtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni ko'rganlari an: "Xoh, jontvor, barmisan!" deyishdilar.

Oradan allakim: "Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?" – deb so'ragan edi. Orif sarkor:

–Xotirjam! – dedi va uloqni shilq etib yerga tashladi [Qodiriy Abdulla.Kichik asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom, –B.50].

Ba'zi o'rinlarda "uloq" so'zi bir joyning o'zida ham "ko'pkari" ma'nosida, ham "echki bolasi" m'nosida qo'llanilganligiga ham guvoh bo'lish mumkin:

...Tomoshachilar orasida yana ola-g'ovur qo'pti: "Ana, uloqning solig'ini yig'ayotibdilar!", "Uloq hozir boshlanadi!", "Murod chavandoz ham turdi!", "Salim qalpog'ini kiydi!", "Ro'zi qassob uloqni bo'g'izlamog'chi, pichog'ini qayrayapti!", "Boyvachchalar ham qo'zg'alishdilar"...

O'rtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamtiz. Chavandozlarning qaysisi to'nini yechmoqda, ba'zisi otining aytilini tortmoqda va qayxi birovlar uloqning solig'ini bermog'chi edilar. Akam ham shohi sallast bilan beqasam to'nini menga berib, o'zi o'rtaga ot o'ynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin o'rtaga g'uj bo'la boshlagan bo'lsalar ham, hanuz uloq o'rtaga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabirsizlanib: "Shu tobgacha tuya bo'g'izlasa ham bo'g'izlasa ham bo'lar edi, ulog'i yaxlab qoldimi?" – deytishdilar [Qodiriy Abdulla.Kichik asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom, –B.34].

Yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, uloq so'zi metonimiya asosida hosil bo'lgan faoliyat-jarayon otlaridan biridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov T. O'zbek leksikografiyasi 70 yil ichida // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1987 -№ 5
2. Begmatov E.A. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –T.: Fan, 1985
3. Hojiyev A. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1994 -№ 1
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Toshkent. O'qituvchi. 1995.
5. Qodiriy Abdulla.Kichik asarlar. –Toshkent: G'afur G'ulom,
6. Rahmatullayev Sh . O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi. 1984.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati.3-jild.
8. Muhammadiyeva D.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation\\_for\\_view=aiGGU2YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)
9. O'razova I.  
[https://www.researchgate.net/publication/371445592\\_UzMU\\_HABARLARI\\_VESTNIK\\_NUUZ\\_ACTA\\_NUUZ\\_MIRZO\\_ULUGBEK\\_NOMIDAGI\\_UZBEKISTON\\_MILLIJ\\_UNIVERSITETI\\_ILMIJ\\_ZURNALI](https://www.researchgate.net/publication/371445592_UzMU_HABARLARI_VESTNIK_NUUZ_ACTA_NUUZ_MIRZO_ULUGBEK_NOMIDAGI_UZBEKISTON_MILLIJ_UNIVERSITETI_ILMIJ_ZURNALI)
10. O'razova I.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=list\\_works&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&gmla=AJsN-F4xXsnOkorkZfkCns%20J13NxbQl\\_btWZxY3Mn1Yqwf8fMB-Z2xaDfKEeADRS%20z1aynTV4-wnq3YUqXm-96pZ0qtTqd31Eh1iBIW-jGYVK5BqQ8EWNh1iSiDaPzbAvJu6fANos1Yl](https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&gmla=AJsN-F4xXsnOkorkZfkCns%20J13NxbQl_btWZxY3Mn1Yqwf8fMB-Z2xaDfKEeADRS%20z1aynTV4-wnq3YUqXm-96pZ0qtTqd31Eh1iBIW-jGYVK5BqQ8EWNh1iSiDaPzbAvJu6fANos1Yl)
11. Rixsiyeva K.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=DVygulUAAAAJ&citation\\_for\\_view=DVygulUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DVygulUAAAAJ&citation_for_view=DVygulUAAAAJ:2osOgNQ5qMEC)
12. Umurzoqova M. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality  
[https://www.researchgate.net/publication/361667526\\_The\\_age\\_factor\\_in\\_the\\_formation\\_of\\_a\\_linguistic\\_personality?\\_tp=eyJjb250ZXh0Ijpb7ImZpenN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUlCjwYWDllj\\_oicHJvZmlsZSJ9fQ](https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijpb7ImZpenN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUlCjwYWDllj_oicHJvZmlsZSJ9fQ)
13. Xolmanova Z.  
[https://www.researchgate.net/publication/358344028\\_Boburnoma\\_leksikasi\\_tadqiqi](https://www.researchgate.net/publication/358344028_Boburnoma_leksikasi_tadqiqi)